

**Mudofaa sohasidagi innovatsion texnologiyalar festivali  
“MS ITF-2024”da “Kibersport” musobaqasini o‘tkazish  
tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

So‘ngi yillarda Mudofaa vazirligi tizimida zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnikalarni ishlab chiqarish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, harbiy sohaga innovatsion g‘oyalar hamda texnologiyalarni keng jotriy etish, shuningdek, ilmiy-tadqiqod, tajriba – konstruktorlik tadbirlarini samarali yo‘lga qo‘yish borasida jadal ishlar olib borilmoqda.

Shu munosabat bilan mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024- yil 27- martdagi 25/1/202-sonli ko‘rsatmasiga asosan Mudofaa sohasidagi innovatsion texnologiyalar festivali “MS ITF-2024” da “Kibersport” musobaqasini tshkil etish va sifatli o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**1- bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**JShShIR** - Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

**Idoralararo kengash** - Kibersport turlarini yanada rivojlantirish va eng ommalashtirish bo‘yicha idoralararo kengash;

**Chempionat** - “Uzbekistan Esports Championship” chempionati.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-noyabrdagi PQ-423-son Qaroriga muvofiq Respublikada kibersport rasman alohida sport turi sifatida e‘tirof etilgan.

3. Musoboqani yuqori saviyada tashkil etish uchun Mudofaa vazirligi hamda Assotsiatsiya organlari mas’ul etib belgilanadi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 11-apreldagi PQ-201-son hamda “Davlat sport-ta’lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 6-iyundagi PQ-268-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024-yil 27-martdagi 25/-202-sonli ko‘rsatmasiga muvofiq 1 bosqichda ro‘yxatdan o‘tgan ishtioqchilar o‘rtasida o‘tkaziladi.

Bunda, **jamoalar (yakka sportchilar)ni ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi**

1. Musobaqa Xalqaro Elektron sport federatsiyasi (bundan buyon matnda xalqaro federatsiya deb yuritiladi) tomonidan o‘rnatilgan qoidalarga ko‘ra o‘tkaziladi va hakamlar tomonidan baholanadi. Musobaqani o‘tkazish uchun hakamlar tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

**II bob. Chempionatni tashkil etish maqsad va vazifalari**

2. Chempionatni o‘tkazishdan asosiy maqsad - yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ular o‘rtasida kibersport turlari bo‘yicha musobaqa o‘tkazish orqali professional kibersportchilarni kashf qilish.

3. Chempionatni o‘tkazishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

yoshlarning kibersport turlari bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish;

O'zbekistonning kibersport bo'yicha terma jamoasini shakllantirish hamda uning xalqaro arenadagi o'rnini yaxshilash;

yoshlarning aqliy faolligini oshirish;

yoshlar o'rtasida zararli odatlardan voz kechish, kasallikka chalinishni oldini olish;

yoshlarning jamoaviy va tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash hamda strategik rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish;

aqliy sport bilan muntazam shug'ullanish borasida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijadorligini oshirish;

chempionat orqali yoshlarning o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bodgan ishonchini mustahkamlash.

## **II bob. Musoboqani tashkil etish tartibi**

4. Musoboqa MSITF-2024 dan ro'yxatdan o'tgan ishtirokchilar o'rtasida tashkil etiladi:

5. Musoboqaning o'tkaziladigan joy Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi va har yili boshlanishidan kamida 15 kun oldin ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-sahifalar orqali ma'lum qilinadi.

6. Mudofaa vazirligi musoboqani o'tkazish bo'yicha barcha tashkiliy masalalami hal etadi, hakamlar hay'ati tarkibini tuzadi va tasdiqlaydi

Musobaqaning tantanali ochilish va yopilish tadbirlari Mudofaa vazirining qaroriga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishilgan holda o'tkazilishi mumkin.

1. Musoboqaning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash maqsadida musobaqa tashkilotchilar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda hamda kibersport o'yinlarining ichki imkoniyatlari yoki maxsus dasturiy ta'minotlardan foydalangan holda jonli onlayn efirga uzatiladi (striming).

### **4-bob. Chempionat ishtirokchilari**

2. Musoboqada ishtirok etmoqchi bo'lgan jamoa bir mahallada istiqomat qilayotgan yoshlardan tuzilgan jamoa bo'lishi mumkin.

3. Musoboqada tarkibida ikkita professional kibersportchilardan ko'p bo'lgan jamoa ishtirok etishi ta'qiqlanadi.

4. Musoboqa ishtirokchilari Maxsus portalda ro'yxatdan o'tishlari lozim. Bunda, har bir kibersportchi yoki jamoa a'zosi shaxsan o'ziga tegishli JShShIRni kiritgan holda ro'yxatdan o'tib, ushbu jarayonda ommaviy oferta shartlariga roziligini beradi.

Chempionatda ishtirok etish uchun ariza jamoa sardori, o'zining jamoa a'zolarini belgilagan holda Maxsus portalda mavjud elektron shaklga muvofiq ariza yuboradi.

5. Assotsiatsiya professional yoki shubhali kibersportchilarni aniqlash va saralash me'zonlari ishlab chiqib, Hayatga kiritadi.

Unga ko'ra, Hayat Maxsus portal orqali kelib tushgan arizalarni tahlil qilib, professional va/yoki shubhali jamoa ishtirokchilarini chempionatdan cheklash bo'yicha qaror qabul qiladi.

6. Ommaviy oferta tuzish orqali chempionat ishtirokchilari chempionatning intizomiy, etika va texnik talablari yuzasidan ishtirokchilarni ogohlantiriladi.

7. Musoboqa ishtirokchilariga qo'yiladigan qo'shimcha talablar Hayat alohida qarori bilan tasdiqlanadi.

8. Musoboqada 16 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etishlari mumkin.

#### **V-bob. Chempionat tashkilotchilari**

9. Musoboqaga Mudofaa vazirligi **umumiy rahbarlik** qiladi.

10. Hakamlar hay'ati musoboqaga umumiy hakamlik qiladi, musoboqag shaffof va ochiq o'tkazilishini muvofiqlashtiradi hamda uning tarkibi Mudofaa vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Musoboqani o'tkazishda Mudofaa vazirligi davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

11. Chempionat tashkilotchilari:

Musoboqaga amaliy rahbarlik qilish uchun uning olib borilishida malakali mutaxassislardan iborat vakillarning ishtirokini ta'minlaydi;

uchinchi shaxslarga tegishli dasturlar va apparat vositalarining, shu jumladan o'yin serverlari yoki turnir xizmatlarining texnik nosozliklari uchun javobgar emas;

musoboqani tashkil etish va o'tkazish shartlari va tartibini tartibga soluvchi, Tanlov ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilovchi Nizom va boshqa me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash huquqiga ega;

Musoboqaga yuqori sport, tashkiliy va ommaviy axborot vositalari saviyasida tashkil etish va o'tkazish uchun zarur bo'lgan, Nizomda bevosita nazarda tutilmagan, Nizom qoidalariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa huquqlarni amalga oshiradi.

Musoboqaning yakuni bo'yicha xa'kamlar hay'ati tomonidan bayonnoma tuziladi.

Musoboqaning o'tkazilganligi yuzasidan bayonnoma Hayatning musobaqalar tugaganidan so'ng berilishi shart.

#### **VI bob. Musoboqani o'tkazish shartlari va sport turlari**

1. Musoboqani mazkur Nizomning ilovaga muvofiq kibersport o'yinlari turlari bo'yicha o'tkaziladi.

Zarur hollarda ushbu ro'yxatga Hayat tomonidan qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

2. Hayat tomonidan har bir kibersport o'yini turi bo'yicha alohida texnik qoidalar tasdiqlanadi.

3. Musoboqada mag'lub bo'lgan kibersportchi yoki jamoa musoboqani tark etadi. G'oliblar chempionatni davom ettirishadi.

4. Musoboqa "olimpiya tizimi" asosida o'tkaziladi va bunda har bir bosqichda chempionat setkasi avtomatik tarzda dasturiy ta'minot vositalari yordamida saralanib, elektron shaklda shakllantiriladi.

#### **Appelyatsiya**

Chempionat ishtirokchilari tomonidan musobaqa natijalari muhokama

qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi

Har bir kibersport o‘yini turi bo‘yicha bo‘lib o‘tgan musobaqa jarayoni kibersport o‘yinlarining ichki imkoniyatlari yoki maxsus dasturiy ta’minotlardan foydalangan holda yozib olinadi.

Har bir musobaqa yakuni bo‘yicha musobaqa videoyozuvlari hakamlar xay’ati tomonidan ko‘rib chiqiladi va ishtirokchilaming barcha hatti-harakatlariga tegishli baho beriladi.

Ishtirokchilaming shubhali hatti-harakatlari aniqlangan taqdirda hakamlar xay’ati ishtirokchilarni chempionatdan chetlashtirish bo‘yicha Hayatga taklif kiritadi.

### **Yakuniy qoidalar**

1. Musoboqada ishtirokchilari va jamoalarning natijalari, jismoniy va aqliy qobiliyati, shuningdek strategik hamda tezlik tayyorgarligi monitoring qilinadi.

2. Assotsiatsiya har chorak yakuni bo‘yicha musoboqani tashkil etishga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanganlik to‘g‘risida Hayatga hisobotlar kiritib boradi.